

Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги

Республика таълим маркази

**Айрим фанлар чуқур ўрганиладиган давлат
ихтисослаштирилган умумтаълим муассасаларининг
ўқув режалари асосида 2-синф учун
Она тили фанидан 0,5 соатга қисқартирилган**

Ўқув дастури

2014 йил

Тузувчи муаллифлар:

А. Неъматова- Амалдаги 2-синф Она тили дарслиги муаллифи

Н.Ахмедова- РТМ “Бошланғич таълим” бўлими бошлиғи

З.Муратова- “Бошланғич таълим” бўлими бош методисти

O‘quv dasturining mazmuni

II sinf

**Fonetika, grammatika, imlo va nutq o‘stirish
(119 soat)**

1. Birinchi sinfda o‘tilganlar yuzasidan takrorlash (4 soat)

2. Tovushlar va harflar (50 soat)

Unli va undosh tovushlar, ularning bir-biridan farqi. Tovushlarni harflar bilan belgilash. Unli tovushlar va harflar. O‘zbek tilidagi olti unli tovushning olti unli harf bilan belgilash. [A] va [o] , [u] va [i] , [ye] , [o‘] unli tovushlarining talaffuzi va undosh tovushlar portlovchi *F* va *p*, *h* va *x* hamda harf birikmasi bilan ifodalanilgan ng tovushining talaffuzi va imlosi. Tutuq belgisi (,) va uning ishlatilishi. Tutuq belgisining so‘zdagi vazifasi.

Berilgan so‘zni lug‘atdan topa olish. Tavsiya etilgan 3-6 so‘zni alifbo tartibida yozish.

Bo‘g‘in. So‘zning oldingi satrga sig‘may qolgan qismini keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chirish. So‘zda nechta unli tovush bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘lishi. Bo‘g‘in tarkibi unli tovushdan, bir unli va bir undosh tovushdan tuzilishi.

Bo‘g‘in ko‘chirish. So‘zning bir yo‘ldan keyingi yo‘lga bo‘g‘inlab ko‘chirilishi. Bo‘g‘in hosil qilgan bir unli harfni oldingi yo‘lda qoldirib yoki keyingi yo‘lga ko‘chirib bo‘lmasligi. Bir bo‘g‘inli so‘zlar, *ona*, *ahil*, *o‘rik*, *elak* kabi ikki bo‘g‘inli so‘zlarni ko‘chirish uchun bo‘linmasligi. Tutuq belgisi qo‘yib yoziladigan so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish uchun bo‘linishi, tutuq belgisining oldingi bo‘g‘inda qoldirilishi (*va’-da*, *mash’- al*, *ta’-lim*). Harf birikmali so‘zlarning bo‘g‘inlab ko‘chirilishi (*si-ngil*, *ko’-ngil*, *tong-gi* kabi), yonma-yon kelgan bir xil undoshli so‘zlarning bo‘g‘inlab ko‘chirilishi (*ik-ki*, *kat-ta*, *is-siq* kabi). Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, ularning imlosi, bunday so‘zlarning yozilishini so‘z oxiriga unli tovush qo‘shib aytib tekshirish (*maktabim – maktab*, *kitobim-kitob*, *maqsadim – maqsad*, *umidim – umid* kabi). Aytilishda tushib qoladigan undoshlar. (Farzand, daraxt, do‘st kabi) ularning imlosi.

3. So‘z (49 soat)

So‘zlarning ma‘no bildirishi, kishilar va narsalar nomini bildirgan so‘zlar, kishilarning nomini bildirgan so‘zlar (*kim?*, *kimlar?*), narsalar nomini bildirgan so‘zlarga *nima?* *nimalar?* so‘rog‘ining berilishi. Kishilarning ismi – familiyasi, hayvonlarga berilgan nomlar, shahar, qishloq, ko‘cha va daryoga qo‘yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi.

Nima qildi?, *Nima qilyapti?* so‘roqlariga javob bo‘lishi, narsa va shaxslarning harakatini bildirgan so‘zlar. *Qanday?*, *Qanaqa?*, so‘roqlariga javob bo‘lishi shaxs va narsalarning belgilarini (rangi, mazasi, shakli, xil- xususiyatini) shaxs va narsalarning sanog‘ini, tartibini bildirgan so‘zlar va ularning so‘roqlari;

Lugʻaviy mashqlar: qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar: (*rohat-azob, oq-qora uygʻotmoq-uxlatmoq, boshlamoq-tamomlamoq, katta-kichik (kichkina), baland-past*) va maʼnodosh soʻzlar, (*orzu, istak, havas, tilak; sevinmoq, shodlanmoq; aybsiz, gunohsiz, begunoh* kabi) shakldosh soʻzlar, uyadosh soʻzlar va koʻp maʼnoli soʻzlar.

4. Gap (16 soat)

Gaplarning darak, soʻroq, buyruq mazmunini bildirishi hamda soʻzlardan tuzilishi;

Gapda birinchi soʻzning bosh harf bilan yozilishi va oxiriga tinish belgisining qoʻyilishi;

Gapdan *kim?, kimlar?, nima?, nimalar?* haqida aytilganini bildirgan soʻzlar (ega va kesim atamasi berilmaydi). Soʻroqlar yordamida gapdagi oʻzaro bogʻlangan soʻzlarni aniqlash.

Nutq va matn

Nutq. Nutqning ahamiyati: Ogʻzaki va yozma nutq haqida tushuncha.

Matn. Matnning oʻzaro mazmunan bogʻlangan ikki yoki bir necha gaplardan tuzilishi; savollar yordamida uncha katta boʻlmagan matn asosida bayon yozish; rasmlarga qarab savollar yordamida gaplar tuzish.

Bir mavzuga oid 2-3 ta gap tuza olish: Bolalarning oʻyinlari, kattalar mehnatiga yordami, oʻqishlari, qiziqishlari haqida oʻqituvchi rahbarligida hikoya tuzish va yozish.

Husnixat

Bir chiziqli daftarda oʻxshash unsurli harflarni yozish va harfni bir-biriga toʻgʻri tutashtirish; oʻxshash unsurli kichik harflar va shu harflardan tuzilgan boʻgʻinlar va soʻzlarni yozish, oʻxshash unsurli bosh harflar va ularni oʻzidan keyin kelgan kichik harfga tutashtirish.

Ayrim yozuv qoidalari. Daftarlarning past tomonidagi burchagini koʻkrak oʻrtasining qarshisiga toʻgʻri qoʻyish; daftarni chap qoʻl bilan ushlab turib yozish; boshini bir oz pastga egib, toʻgʻri oʻtirish; oyoqni boʻsh tutib, yerga qoʻyib oʻtirish; qoʻlning tirsagini parta ustida tutish. Ruchkani uch barmoq orasida erkin ushlash. Har bir harfni toʻgʻri tutashtirishga rioya qilgan holda boʻgʻin va soʻzlarni aniq yozishga harakat qilish; harf va harf birikmalarini toʻgʻri va aniq shakllantirish; shoshmasdan, chaplashtirmasdan yozish; har bir mashqni uch-toʻrt marta takrorlash.

Oʻquv yili davomida imlosi qiyin boʻlgan quyidagi soʻzlarning talaffuzi va yozilishini bilib olish: avgust, baland, baho, bahor, behi, Buxoro, dars, daftar, doʻst, farzand, fasl, havo, hikoya, jahon, juft, karam, kaft, konki, lavlagi, loviya, lugʻat, mashina, minnatdor, moslama, navbatchi, noʻxat, oktabr, payvand, palto, paxta, qoʻngʻiroq, quyosh, sabzi, Samarqand, sentabr, sinf, singil, soat, Toshkent, traktor, vazifa, vatan, xalq, xursand, yomgʻir, yostiq, oʻqituvchi, oʻquvchi, shahar kabi.

Bir chiziqli daftarda chiroyli yozish malakalarini hosil qilish: oʻxshash unsurli kichik va bosh harflarni yozish; harflarni bir-biriga tutashtirish.

Oʻxshash unsurli kichik harflar:

1-guruh *i, u, n, m, t, l, y*

2-guruh *h, j, k, f*

3-guruh *o, o', q, a, g, g', p*

4-guruh *e, b, x*

5-guruh *r, v, s, sh, ch*

O'xshash unsurli bosh harflar:

1-guruh *U, L, Z, I*

2-guruh *M, H, K, N, A*

3-guruh *O, O', Q, X, Ch*

4-guruh *E, S, Sh, Z*

5-guruh *V, G, G', Y*

6-guruh *T, F, R, B, P*

Ўқув чораклари	Ҳафта лари сони	Ажратилган соат		
		ИИ		
1-чорак (2.09-3.11)	9 ҳафта	32		
2-чорак (11.11- 29.12)	7 ҳафта	24		
3-чорак(10.01- 20.03)	10 ҳафта	35		
4-чорак (1.04-24.05)	8 ҳафта	28		
Ҳафталик соат	-	3,5		
Ўқув йили соати	-	119		